

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2022- yil yanvar-noyabr oyi)

1. Sanoat mahsuloti

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida respublika korxonalarini tomonidan **487,0** trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **105,4** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi **82,9** foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **9,7** foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **6,9** foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **0,5** foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,7 %** ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarida ishlab chiqarish **12,7 %** ga, suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarida **1,6 %** ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida **0,9 %** ga o'sishi bo'ldi.

Ishlab chiqaradigan sanoat hajmining o'zgarishiga avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish korxonalarida (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **135,8 %**), shuningdek, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish korxonalarida (**146,9 %**) ishlab chiqarish hajmining o'sishi sabab bo'ldi.

Shu bilan birga ishlab chiqarish sanoatida, o'tgan yilning shu davriga nisbatan kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **76,5 %**), hamda asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish korxonalarida (**94,0 %**), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarida (**98,3 %**) ishlab chiqarish hajmining pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida metall rudalarini qazib olish korxonalaridagi (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **104,4 %**) ishlab chiqarish hajmining o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga xom neft va tabiiy gaz qazib olish korxonalarida (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **99,7 %**) ishlab chiqarish hajmida pasayish kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati **121,6 %** ni tashkil etdi, shu bilan birga ularning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi ulushi **35,3 %** ga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **35,5 %** ni, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi esa **64,5 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan **120,3 %**ni, nooziq-ovqat tovarlari o'sish sur'ati esa **122,4 %**ni tashkil etdi.

2. Inflyatsiya darajasi

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **10,9 %** ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari joriy yilning noyabrida o'tgan yilning dekabriga nisbatan narxlarning o'sish sur'ati bo'yicha yetakchilikni saqlab qoldi (13,7 %). Ular narxlarining o'rtacha oylik o'sish sur'ati 2022- yilning yanvar-noyabrida 1,2 % ni tashkil etdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar ushbu davrda 9,9 %ga qimmatlashdi, narxlarning o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,9 % ni tashkil etdi.

Pullik xizmatlar narxlarining o'sish sur'ati 2022- yilning yanvar-noyabrida 7,2 % ni, o'rtacha oylik o'sish sur'ati esa 0,6 % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-noyabridagi yig'ma INI o'sish sur'atiga eng yuqori ta'sir oziq-ovqat mahsulotlariga tegishli bo'lib, ular narxlarining oshishi yig'ma INI 5,79 foiz darajasida (keyingi o'rinlarda f.d.) yuqorilashini ta'minladi. Nooziq-ovqat mahsulotlar hisobiga yig'ma INI 3,43 f.d. va xizmatlar hisobiga 1,66 f.d. yuqoriladi.

Yig'ma ko'rsatkichning o'sish sur'atiga ta'siri tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga umumiy o'sish sur'atining 53,2 % i, nooziq-ovqat mahsulotlari hissasiga 31,5 % i va xizmatlar hissasiga 15,3 % i to'g'ri keldi.

O'zR MIIT-2018 bo'limlari orasida oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarini o'zgarishlarining 2022- yilning yanvar-noyabridagi yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri eng yuqori ko'rsatkichni qayd etib, ushbu davrda ularning narxlarini **13,5 % ga** qimmatlashdi va yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atini 5,38 f.d. yuqorilashini ta'minladi. Salmoq ko'rsatkichlarida mazkur mahsulotlar hissasiga kuzatilayotgan tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sirining 49,0 %idan ortig'i to'g'ri keldi. Ushbu bo'lim tovarlari orasida donli ekinlar va yorma mahsulotlari narxlarining oshishi yetakchilik qildi. Shunday qilib, mazkur guruhga kiruvchi mahsulotlar narxlarini joriy yil boshidan 1,3 barobarga oshdi. Bundan tashqari, shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (24,3 %) va sut, sut mahsulotlari va tuxum (15,8 %) narxlarini ham sezilarli darajada oshdi. Narxlarining pasayishi mevalar va yong'oqlarda (-6,7 %) qayd etildi.

Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari (20,5 %), sog'liqni saqlash (14,9 %), maishiy va boshqa tovarlar va xizmatlar (14,3 %) bo'limlari 2021- yilning dekabriga nisbatan narxlar oshishi bo'yicha yetakchi uchlikdan joy oldi. Ushbu bo'limlarning yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga jami ta'siri 1,92 f.d. ni tashkil etdi.

3. Qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida 115110,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 105,7 %ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 30923,0 mlrd. so'm yoki 26,9 % yirik korxonalar va

tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 63325,8 mlrd. so‘m yoki 55,0 %, norasmiy sektor sub’ektlari tomonidan 20861,6 mlrd.so‘m yoki 18,1 % bajarildi.

4. Chakana savdo tovar aylanmasi

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **275 831,8** mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **11,9** % ga o‘tdi.

Yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2021- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **31,8** % ga o‘tdi, bu esa umumiy savdo hajmining **21,3** % ulushiga to‘g‘ri keladi. Kichik biznes subektlarining chakana tovar aylanmasi 2021-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **7,0** % ga ko‘paydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **70,5** % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **8,2** % ulush bilan **22 741,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

5. Tashqi savdo aylanmasi

2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **44 947,6** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan **6 840,7** mln. AQSh dollariga yoki **18,0** % ga ko‘paydi. Eksport hajmi **17 365,3** mln. AQSh dollariga (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **12,0** % ga o‘shish) va import **27 582,3** mln. AQSh dollariga o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **22,1** % ga o‘tdi).

Eksport tarkibida ham o‘shish kuzatildi, shu jumladan: hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari) yog‘lar va mumlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan - **16,5** b. (19,4 mln. dollargacha)ga, ichimliklar va tamaki **3,2** b. (68,6 mln. doll.)ga, turli xil tayyor buyumlar **40,5** % (286,8 mln doll), Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar **31,9%** (275,6 mln.doll)ga hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar **18,8** %.(232,6 mln. doll.)ga ko‘paydi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (shu jumladan ehtiyot qismlar va butlovchi qismlarga) - **16,2** % (1 190,7 mln. doll.), sanoat tovarlari **26,3** % (1 093,3 mln. doll.), kimyo mahsulotlari (va ulardan tayyorlangan mahsulotlar)- **17,3** % (562,9 mln. doll.) to‘g‘ri keladi.

6. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **322,6** trln. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **16,0** % ga o‘tdi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o‘shishida moliyaviy xizmatlarning **29,7** % ga (ko‘rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o‘shishidagi ta‘siri 6,2 punkt), transport xizmatlari **14,0** %ga (o‘shishdagi ta‘siri 3,3 punkt), savdo xizmatlari **8,6** % ga (o‘shishdagi ta‘siri 2,2 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **25,1** %ga (o‘shishdagi ta‘siri 1,6 punkt), boshqa

xizmatlar **15,7 %** (o'sishdagi ta'siri 0,6 punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlar **11,5 %** (o'sishdagi ta'siri 0,5 punkt), yashash va ovqatlanish xizmatlari **13,9 %** (o'sishdagi ta'siri 0,4 punkt), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **11,7 %**. Ularning ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 0,3 punktni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi savdo xizmatlari (**80,3** trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **108,6 %**), transport xizmatlari (**73,3** trln.so'm, **114,0 %**) va moliyaviy xizmatlar (**72,7** trln.so'm, **129,7 %**)ga to'g'ri keladi.

7. Korxonalar va tashkilotlar soni

2022- yil 1-dekabr holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) **588,8** mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 520,2 mingta). O'tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi 12,2 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 13,4 foiz) tashkil etdi. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng yuqori o'sishi Xorazm (17,4 foiz), Samarqand (16,7 foiz), Jizzax (15,5 foiz), Qashqadaryo (14,5 foiz), Farg'ona (13,1 foiz), Toshkent (10,7 foiz), Andijon (10,5 foiz) viloyatlari va Toshkent shahrida (11,6 foiz) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining eng yuqori o'sishi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (17,4 foiz), savdo (17,0 foiz), axborot va aloqa (15,4 foiz), tashish va saqlash (12,9 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (12,2 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (11,3 foiz), sanoat (8,6 foiz) hamda qurilish (7,2 foiz) faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

2022- yil yanvar-noyabr oyida respublikada 86,8 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 83,6 mingtani tashkil etdi.

2022- yil 1 dekabr holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 15 497 tani tashkil etdi. O'tgan yil bilan solishtirganda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi 18,2 % ni yoki 2 389 tani tashkil etdi. Ulardan 6 401 tasi qo'shma korxonalarni va 9 096 tasi xorijiy korxonalarni tashkil etgan.